


O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmasevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning SSV 2024 yil 06 iyuldagi № MMO – 791 dastur tasdiqlash ro'yhatiga asosan tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2029 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi								
Kafedra/ bo'lim	Otorinolariningologiya kafedrası								
O'quv dastur nomi	«Tibbiy surdologiya»								
O'qish turi	ixtisoslashtirish								
O'quv dastur mualliflari	S.S. Arifov - t.f.d., professor, kafedra mudiri , D.T. Artikova - t.f.n., assistant, I.B. Baxadirova - assistant								
Siklning umumiy soati	288 kredit								
Dars o'tuvchi pedagoglar									
      									
S.S. Arifov t.f.d., professor, kafedra mudiri		T.Sh. Mamatova t.f.n., dotsent		D. E. Pardaev t.f.n., dotsent		A.Ch. Xushbakov t.f.n., assistant	D.T. Artikova t.f.n., assistant	A.B.Rasulov.P hD, assistant	I.B. Baxadirova assistant
Maqsad	Amaldagi standartlar va protokollarga muvofiq eshitish va muvozanat a'zolari holatini baholash, eshitish zaiflashuvi, quloqda shovqin, muvozanatning buzilishi bilan kechadigan kasalliklar bilan xastalangan bemorlarga tashxis qo'yish, davolash va reabilitatsiya qilishni amalga oshiradigan mutaxassis – shifokor surdolog tayyorlashdan iborat.								
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	otorinolariningologlar								
Dastur vazifalari	eshitish zaiflashuvi, quloqda shovqin, muvozanatning buzilishi bilan kechadigan kasalliklarining kelib chiqishi, shakllanishi, kechishi, davolash turlarini belgilash bilan eshitish va muvozanat a'zolarining anatomo – fiziologik xususiyatlari orasidagi o'zaro bog'liqligini tahlil etish. eshitish zaiflashuvi, quloqda shovqin, muvozanatning buzilishi bilan kechadigan kasalliklarining sabablari va patogenetik mexanizmlari haqidagi bilimlarni hozirgi kun holatidan kelib chiqqan holda o'zlashtirish; eshitish a'zosi holatini baholash, uning eshitish zaiflashuvi, quloqda shovqin, muvozanatning buzilishi bilan kechadigan								

	kasalliklarini zamonaviy tashxislash usullarini, bemorlarni davolash va reabilitatsiya qilish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirish orqali kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish; eshitish zaiflashuvi, quloqda shovqin, muvozanatning buzilishi bilan kechadigan kasalliklarga taluqli klinik protokollar, standartlarni tahlil qilish va ularni kasalliklarning turli klinik kechishlarida qo'llash bo'yicha ko'nikmalarni o'rganish; eshitish zaiflashuvi, quloqda shovqin, muvozanatning buzilishi bilan kechadigan kasalliklarida yuqori texnologiyali vositalarni qo'llash bo'yicha yangi kasbiy ko'nikma va malakalarni egallash; eshitish zaiflashuvi, quloqda shovqin, muvozanatning buzilishi bilan kechadigan kasalliklarini oldini olish va dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirishni o'zlashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini, hamda tibbiy madaniyatni oshirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish; boshqa fanlar bilan o'zaro integratsiya asosida eshitish zaiflashuvi, quloqda shovqin, muvozanatning buzilishi bilan kechadigan kasalliklarini o'rganish tamoyillarini o'zlashtirish.	
Modullar	Modul 1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimida surdologik xizmatning tuzilishi va faoliyat yuritilishi Modul 2. Eshitish va muvozanat a'zolarining anatomo - fiziologik xususiyatlariga zamonaviy qarashlar. Modul 3. Eshitish va muvozanat a'zolari holatini baholash uchun qo'llaniladigan zamonaviy usullar Modul 4. Eshitish qobiliyatini zaiflashuvi, muvozanatning o'zgarishi, quloqda shovqinni shakllarining qiyosiy va topik tashxisoti Modul 5. Eshitish qobiliyatini zaiflashuvi, muvozanatning o'zgarishi, quloqda shovqinni bilan kechadigan kasalliklarni tashxislash Modul 6. Eshitish qobiliyatini zaiflashuvi, muvozanatning o'zgarishi, quloqda shovqin bilan kechadigan kasalliklar bilan xastalangan bemorlarni davolash va reabilitatsiya qilishning amaldagi klinik protokollar va standartlari	
O'qish bazalari	TXKMRRM klinikasi 	«Prof Med Servis» MChJ 
	«Shifo Ziyo Plyus» XK 	

Simulyatsion asbob/uskunalar

